



O‘ZBEK, INGLIZ VA TURK TILLARIDA SIFAT SO‘Z TURKUMINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Pardayeva Ruxsora Saidahmad qizi

O‘zMU Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti,

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 4-kurs talabasi

ruxsorapardayeva61@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek, ingliz va turk tillarida sifat so‘z turkumining morfologik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilindi, o‘zbek va xorijiy tillarda sifatning grammatik tuzilishi, uning yuzaga kelishi hamda farqli jihatlarini yoritilgan. Shuningdek, sifat so‘z turkumining tuzilishi, darajalari, so‘z va yasovchi qo‘shimchalar orqali yasalishi misollar asosida izohlangan va ularning gapda vazifasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Sifat so‘z turkumi, sifat darajalari, sodda sifatlar, qo‘shma sifatlar, juft sifatlar va takroriy sifatlar otlashish, ko‘chma ma’no, ingliz tili, turk tili, qiyosiy tipologik tahlil.

Kirish. Tilshunoslikning eng so‘nggi yutuqlaridan biri til ga bir butun tizim sifatida qarash hamda uni nutqqa zidlab o‘rganish til birliklarining nutq faoliyatida kontekst va vaziyat bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik vazifalariga aniqlik kiritdi. So‘z turkumlari tilning leksik va grammatik tizimini tashkil etuvchi asosiy birliklardan biri hisoblanadi. Ular orasida sifat so‘z turkumi predmetning belgi, xususiyat, holat va sifatini ifodalashi, gapda aniqlovchi hamda kesim vazifalarida faol qo‘llanishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Sifatlarning grammatik tuzilishi, yasallish usullari, darajalanish tizimi va sintaktik vazifalari turli tillarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Qiyosiy tilshunoslik turli tillarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, ularning tipologik



xususiyatlarini yoritish hamda til tizimidagi universal va milliy belgilarni ochib berishga xizmat qiladi. O'zbek va turk tillari bir til oilasiga mansub bo'lgani sababli sifatlarning grammatik qurilishi hamda yasalişida ko'plab o'xshashliklar kuzatiladi. Ingliz tili esa german tillari guruhiga mansub bo'lib, sifatlarning morfologik va sintaktik xususiyatlari turkiy tillardan ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Shu bois mazkur uch til misolida sifat so'z turkumini qiyosiy o'rganish ularning umumiy va o'ziga xos belgilarini ilmiy asosda yoritish imkonini beradi. O'zbek tili morfologiyasida boshqa so'z turkumlari qatorida sifat ham katta o'rinni egallaydi. Sifat o'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra mustaqil so'z turkumi sifatida ajratilgan. Xuddi shuningdek ingliz va turk tillarida ham bu so'z turkumi mustaqil so'z turkum. So'zlarning tipologiyasidan kelib chiqib ba'zi so'zlar muloqotda qo'llanilishiga ko'ra ot so'z turkumida va ba'zi hollarda sifat deb kelimoqda. I.K.Dmitriyev: "Qart (qari) tipidagi so'zni dastlab sifat deb hisoblash mumkin, chunki u predmet belgisini bildiradi; sintaktik planda xuddi shu so'z: a) sifat tarzida ham, b) ot tarzida ham qo'llana oladi. Shunday qilib, *qart* tipidagi so'zlarni semantik xarakteristika xususiyatlariga ko'ra, shartli ravishda sifat-ot termin bilan atasa bo'ladi", - degan. Shunga o'xshash fikrni A.P.Yaqubinskiy ham: "Ot bilan sifat o'rtasida grammatik jihatdan dastlab hech qanday farq sezilmaydi. Har ikkala grammatik kategoriya ham ot turkumidan kelib chiqadi, ya'ni biri predmet nomini anglatasa, biri predmet belgisini anglatadi" kabi g'oyalar ilgari surilib kelinmoqda.

Asosiy qism. O'zbek, turk va ingliz tillarida sifat so'z turkumining morfologik, semantik hamda sintaktik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlashdan iborat. Qiyosiy-tipologik, tavsifiy va tahliliy metodlardan foydalanilib, sifatlarning yasalişhi, darajalanish gapdagi vazifasi hamda qo'llanish xususiyatlari uch til materiallari asosida tahlil qilinadi. Turkiy tillar grammatikasi va ingliz tili grammatikasini o'rganishda, shuningdek, xorijiy tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirishda nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni



ko'rsatadiki, o'zbek, turk va ingliz tillarida sifat so'z turkumi predmetning belgi va xususiyatini ifodalashi jihatidan umumiy grammatik vazifani bajaradi. Uchala tilda ham sifatlar o'zni aniqlaydi va gapda asosan aniqlovchi vazifasida keladi. Biroq ularning morfologik tuzilishi, darajalanish usullari hamda sintaktik xususiyatlarida muayyan tafovutlar mavjud.

Ma'lumki, til sathi birliklarining asl mohiyati nutqiy qo'llanishda namoyon bo'ladi. Nutqiy qo'llanishda til birliklarining, xususan, ma'noli birliklarning tashqi olam xususida axborot berish, nutq egasining voqelikka bo'lgan modal, hissiy munosabatini namoyish etish kabi turli vazifalari yuzaga chiqadi. Til birliklari kontekst, nutqiy vaziyat, til egalarining tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko'nikmalari kabi omillar bilan bog'liq holda qo'llanganda ularning vazifaviy imkoniyatlari yanada kengayadi. Bunday vaqtda til birliklarining kontekst, vaziyat, til egalarining tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko'nikmalari kabilar bilan bog'liq vazifasi namoyon bo'ladi. Qadimgi tillarda ham ot bilan sifatning munosabati ko'pincha ikki otning birikib kelishi bilan ifodalangan, ot ma'lum o'rinda sifat vazifasiga ko'chgan: predmetning belgisi, xususiyatlari ikki o'zni bir-biri bilan biriktirish orqali ifodalangan. Demak, har qaysi tildagi so'z turkumlari til bilan bir vaqtda paydo bo'lgan hodisalar emas. Shuning uchun biror so'zning ot, sifat turkumiga xosligi masalasiga nisbiy yondashish mumkin. Jumladan, *chol*, *kampir* kabi so'zlarimiz qanchalik ot bo'lsa, shunchalik sifat hamdir: *chol kishi*, *kampir xotin*. Yoki *taxta ko'prik*, *oltin soat* kabi birikmalarida *taxta* va *oltin* so'zlarini alohida so'z turkumi sifatida tahlil qilinsa ham ot deb olinadi. Sifat so'z turkumini o'zida ham, masalan, *chiroyli qiz* otning belgisini bildirgani uchun sifat, *chiroyli gapirdi* birikmasida harakatni belgisini bildirgani uchun ravish emas, balki alohida so'z turkumi bo'yicha sifat olinadi. So'z turkumlari orasidagi bunday "o'tish" hollari "otlashish", "sifatlashish" deb emas, balki turkiy tillarda so'z turkumkari faqat morfologik ko'rsatkich asosida ajratilmasligi, uning otlik ma'nosi birikma tarkibida reallashuvi bilan izohlanadi. Birikma tarkibida qaysi ma'no



reallashuviga qarab, u turlanuvchi va turlanmaydigan bo‘ladi. Bunda aniqlovchi-aniqlanmish munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Aniqlovchi (sifatlovchi) turlanmaydi, aniqlanmish turlanadi. Rang-tusni bildiruvchi sifatlar ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi natijasida ham presuppozitsiya hodisasi hosil qilinadi: *Yuragi sim-siyoh bo‘lib, boshi aylanib ketdi*. “Sim-siyoh” leksemasi orqali yozuvchi “*juda xafa bo‘ldi*” yoki “*U xursand emas*” degan tag ma’noni anglatmoqchi bo‘ladi. Vazn-og‘irlikni bildiruvchi sifatlar ham ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi: Masalan: *Og‘ir bo‘lish kerak*. Og‘ir leksemasi-vazn, og‘irlik bildiruvchi sifatlarga mansub bo‘lib, bu gapda ko‘chma ma’noda qo‘llanib, *bundan keyin vazmin, bosiqroq bo‘lish kerak* degan ma’noni ifodalagan. Ba’zi so‘zlashuv uslubida foydalanilgan sifalarda ko‘chma ma’no mavjud Masalan, “*Yursa ham, tursa ham onasining ma’yus, mehribon nigohi ko‘zidan ketmaydi*.” Ma’yus, mehribon leksemalari orqali onaning bosiq, vazmin, kuyunchakligi anglashiladi. “*Uning onasi qattiqqo‘l, talabchan emas edi*”, degan ma’noga ishora qiladi.

O‘zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgani sababli sifatlarning grammatik tizimida ko‘plab o‘xshashliklar kuzatiladi. Har ikkala tilda sifatlar, odatda, son va kelishik qo‘shimchalarini qabul qilmaydi hamda aniqlayotgan otdan oldin keladi. Masalan, o‘zbek tilida *katta uy, shiram xona* birikmalari, turk tilida esa *büyük ev, konforlu odam* shakllarida qo‘llanadi. Ingliz tilida ham sifatlar odatda otdan oldin joylashadi: *a big house, a beautiful girl*, biroq kesim tarkibida kelganda bog‘lovchi fe‘llar *be, seem, become* va boshqalar orqali ifodalanadi: *The house is big; The book, which is very interesting, has become my favourite*. O‘zbek va turk tillarida esa sifat kesim vazifasida bog‘lovchi fe‘lsiz ham qo‘llanishi mumkin: *Akam muvaffaqiyatli, bilimli ilg‘or talaba; Ev büyük*. Sifatlarning yasaliş usullarida ham umumiylik va farqlar mavjud. O‘zbek tilida sifatlar affiksatsiya: *ishchan, suvli, bahorgi*, qo‘shma va juft shakllar orqali hosil qilinadi. Turk tilida ham affiksatsiya faol bo‘lib: *tuzlu, yağlı, evsiz*, sifat yasovchi qo‘shimchalar keng qo‘llanadi.



1. Niteleme Sifatları (Asl Sifatlar) Otning ichki xususiyatini, rangi, shakli yoki holatini bildiruvchi sifatlardir. Ular "Nasıl?" (Qanday?) so'rog'iga javob beradi. *kırmızı* (qizil), *siyah* (qora), *uzun* (uzun), *yuvarlak* (dumaloq)

2. Belirtme Sifatları (Aniqlovchi Sifatlar) Otni ishora, miqdor, son va so'roq jihatidan aniqlab keluvchi sifatlar guruhi. *şu* (shu), *öteki* (narigi), *iki* (ikki), *yarım* (yarim), *kaç* (nechta/necha), *hangi* (qaysi), *ne kadar* (qancha), *bazı* (ba'zi), *birçok* (ko'plab). O'zbek tilidagi kabi turk tilida ham sifatlar turli darajalarni ifodalashi mumkin: Oddiy daraja: *büyük* **Qiyosiy daraja:** *daha büyük* **Orttirma daraja:** *en büyük*

Turk tilida sifatlar hech qachon ko'plik qo'shimchasini (-lar/-ler) yoki kelishik qo'shimchalarini olmaydi. Agar sifat ot vazifasida kelib (otlashganda) qo'shimcha olsa, u holda sifatlik xususiyatini yo'qotadi. Masalan: *yaşlı adam* (qari kishi) – bu yerda "yaşlı" sifat, *yaşlılar* (qariyalar) – bu yerda ot hisoblanadi. **Sifat yasovchi qo'shimchalar:** Asosiy sifatlarga qo'shimchalar qo'shish orqali yangi sifatlar yasaladi: **-li / -lü / -lı / -lu:** *dikkatli* (diqqatli) **-siz / -süz / -sız / -suz:** *tuzsuz* (tuzsiz), *dikatsiz* (diqqatsiz).

Ingliz tilida esa sifatlar *-ful*, *-less*, *-ous*, *-able*, *-al* kabi suffikslar yordamida: *beautiful*, *careless*, *dangerous*, *washable*, *natural* yoki kompozitsiya usuli bilan yasaladi. Misol uchun, *snow-white* – *oppoq*, *sky-blue* – *osmon rang*, *world-famous* – *dunyoga mashhur*. Darajalanish tizimida ham o'xshash va farqli jihatlar kuzatiladi. O'zbek tilida sifatning oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari mavjud bo'lib, ular -roq qo'shimchasi hamda eng, juda, nihoyatda kabi kuchaytiruvchi birliklar orqali ifodalanadi. Turk tilida qiyoslash uchun *daha*, orttirma daraja uchun *en* so'zlari qo'llanadi. Ingliz tilida esa qisqa sifatlarda -er va -est qo'shimchalari: *small* – *smaller* – *smallest*, ko'p bo'g'inli sifatlarda esa more va most birliklari: *beautiful* – *more beautiful* – *most beautiful* ishlatiladi.

Semantik jihatdan uchala tilda ham sifatlar rang-tus, hajm, shakl, ta'm, hid, miqdor, makon va vaqt belgilarini ifodalash xususiyatiga ega. Shu bilan birga, ayrim



semantik guruhlarning qo‘llanish chastotasi va uslubiy imkoniyatlari har bir tilning milliy-lisoniy xususiyatlari bilan belgilanadi. Olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va turk tillaridagi sifat tizimi bir oilaga mansubligi sababli ko‘plab umumiy belgilarga ega. Ingliz tilida esa sifatlarning sintaktik va morfologik xususiyatlari analitik til qurilishiga mos ravishda shakllangan. Mazkur o‘xshash va farqli jihatlar qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda chet tillarini o‘qitish metodikasi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

1-jadval

O‘zbek, turk va ingliz tillarida sifat so‘z turkumining o‘xshash va farqli jihatlari

№	Belgi	O‘zbek tili	Turk tili	Ingliz tili
1.	So‘rog‘i	Qanday? Qanaqa?	nasıl?, hangi?	what kind of ?, which?
2.	O‘rni	Otdan oldin	Otdan oldin	Otdan oldin
3.	Qiyosiy daraja	-roq	daha	-er / more
4.	Orttirma daraja	Eng,g‘oyat, nihoyatda...	En, Çok	-est / most
5.	Sifat yasalishi	Affiksatsiya, qo‘shma	Affiksatsiya	Suffiksatsiya, kompozitsiya

Izoh: Ushbu jadval muallif izlanishlari asosida tuzilgan.

O‘zbek tilida sifatlarda haqiqiy ma‘nodagi forma yasallishida *-roq* affiksi muhim rol o‘ynaydi: *kuchliroq, sifatliroq, balandroq*. Bu qo‘shimcha sifatning ozaytirma daraja formasini yasaydi. Shuningdek, *-ish, -imtir* affiksi yordamida yasaluvchi sifatlar ham mavjud. Bunda sifatning bildirgan belgiga rang-tusga moyilligini, shunga yaqinlikni bildiradi: *oqish, qizg‘ish, ko‘kimtir* kabi. Lekin bu



affikslar bilan forma yasalishi universal xususiyatga ega emas, balki rang-tus bildiruvchi sanoqli sifatlardagina uchraydi. Ayrim hollarda belgining ortiq darajada turli ko‘rinishlari kuzatiladi. Masalan, *qop-qora*, *sap-sariq*, *kap-katta*, *bus-butun* kabi usullar bilan ifodalanishini morfologik usul degan qarashlar mavjud. Ammo buni morfologik usul deb bo‘lmaydi. Sifatning sintetik formasi deb ham bo‘lmaydi. Chunki bularda sifat yasovchi affiks yo‘q. Bular belgi darajasidagi ortiqlikning fonetik usul bilan ifodalanishidir. Sifat so‘z turkumini sintetik usul bilan yasalishi uchun forma yasovchi qo‘shimchalar yetakchilik qiladi. Misol uchun, *suvsiz*, *hosildor*, *mehnatchan*. Analitik formasi belgining ortiq darajasini ifodalaydi. Bu forma ikki komponentli bo‘lib, birinchi komponentni chiqish kelishigi formasida qo‘llash orqali hosil qilinadi: *uzoqdan uzoq*, *shirindan shirin*. Ikkinchi ko‘rinishi ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning birikishi orqali sifat ma’nosining hosil bo‘lishidir. Bunda sifat sintaktik yo‘l bilan yuzaga keladi va bir butun belgi ma’nosini ifodalaydi. Masalan, *nihoyatda katta*, *juda tirishqoq*, *eng yorqin*.

Sifat ham boshqa so‘z turkumlari kabi tuzilishiga ko‘ra sodda (*uddaburon*), qo‘shma (*sheryurak*), juft (*baland-past*) va takroriy (*kichik-kichik*) kabi turlarga bo‘linadi.

Xulosa. Tilga bir butun tizim sifatida qarash hamda uni nutqqa zidlab o‘rganish til birliklarining nutq faoliyatda kontekst va vaziyat bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik vazifalariga aniqlik kiritdi. Til birliklarini pragmatik yo‘nalishda tadqiq etish ularning bevosita ko‘zga tashlanmaydigan, faqat nutqda yuzaga chiquvchi ichki imkoniyatlarini aniqlashga yo‘l ochdi. Shuningdek, sifat so‘z turkumi ham boshqa so‘z turkumlari kabi nutqni chiroyli va ifodali bo‘lishi uchun xizmat qiladi.

O‘zbek, turk va ingliz tillarida sifat so‘z turkumining grammatik va semantik xususiyatlari umumiy vazifaga ega ekanligini, ya’ni predmetning belgi va xususiyatini ifodalashga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, har bir tilning tipologik xususiyatlari sifatlarning yasalishi, darajalanishi hamda sintaktik



qo'llanishida o'ziga xos jihatlarni yuzaga keltirishi aniqlandi. Qiyosiy tahlil o'zbek va turk tillarining yaqinligi sababli ularning sifat tizimida ko'plab umumiy belgilar mavjudligini tasdiqladi. Ingliz tilida esa sifatlarning grammatik ifodalanishi analitik til qurilishiga mos ravishda shakllangan bo'lib, darajalanish va gapdagi vazifasida ayrim farqli xususiyatlar kuzatiladi. Biroq uchala tilda ham sifatlar nutqning aniqligi, obrazlilik va ifoda ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim leksik-grammatik vositalardan biri ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Tadqiqot davomida aniqlangan o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan uch tilning grammatik tizimini chuqurroq anglashga, tarjimashunoslikda muqobil birliklarni tanlashga hamda o'zbek, turk va ingliz tillarini o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida sifat kategoriyasining funksional-semantik, pragmatik va kognitiv jihatlarni kengroq qamrab oluvchi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev.A Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi. – Toshkent, 1979. 80b.
2. Sodiqova.M Hozirgi o'zbek tilida sifat. – Toshkent, 1974. 125b
3. Mamarajabova Z. O'zbek tilida sifatlarning konnatativ ma'nolari. - Toshkent. 2004.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. - Toshkent. 2007.
6. Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. Тошкент. 2010.
7. www.ziynet.uz
8. www.vikipediya.uz